



REFORMS AIMED AT THE DEVELOPMENT OF SPORTS IN UZBEKISTAN IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS RESULTS

Alisher Tishabaev

Researcher

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

E-mail: alisertisabaev@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: national, physical education, law, “Alpomish and Barchinoy”, “Universiyada”, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, sports.

Received: 18.03.25

Accepted: 20.03.25

Published: 22.03.25

Abstract: This article covers the reforms aimed at the development of sports in Uzbekistan in the early years of independence and their results on the basis of scientific, historical literature and sources. Also, the legal, organizational, economic and social foundations of physical education and sports and the three – stage sports system - “Universiada” (for students of higher educational institutions), “Barkamol avlod” (for students of secondary special educational institutions) and “Umid nihollari” (for high school students) - are drawn into the scope of research.

ISTIQLOLNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA SPORTNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR VA UNING NATIJALARI

Alisher Tishabaev

tadqiqotchi

Farg‘ona davlat universiteti

Farg‘ona, O‘zbekiston

E-mail: alisertisabaev@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: milliy, jismoniy tarbiya, qonun, “Alpomish va Barchinoy”, “Universiyada”, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, sport.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda sportni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va ularning natijalari ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy asoslari hamda uch bosqichli

sport tizimi – “Universiada” (oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun), “Barkamol avlod” (o‘rta maxsus ta’lim muassasalari talabalari uchun) va “Umid nihollari” (o‘rta maktab o‘quvchilari uchun) musobaqalarining tashkil etilishi va an’anaviy o‘tkazilishining yo‘lga qo‘yilish tahlillari tadqiqot doirasiga tortilgan.

РЕФОРМЫ И ИХ РЕЗУЛЬТАТЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА РАЗВИТИЕ СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Алишер Тишабаев

Исследователь

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

E-mail: alisertisabaev@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Национальный, физкультура, закон, “Алпомиш и Барчиной”, “Универсиада”, “Умид нихоллари”, “Баркамол авлод”, спорт.

Аннотация: В данной статье освещены реформы, направленные на развитие спорта в Узбекистане в первые годы независимости, и их результаты на основе научной, исторической литературы и источников. А также правовых, организационных, экономических и социальных основ физической культуры и спорта, а также организации и традиционного проведения трехуровневой спортивной системы – соревнований “Универсиада” (для студентов высших учебных заведений), “Баркамол авлод” (для студентов средних специальных учебных заведений) и “Умид нихоллари” (для старшеклассников). анализ внедрения был взвешен в рамках исследования.

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini rivojlantirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Men doimo bir fikrni takrorlashdan charchamayman. Biz o‘zimizning halol mehnatimiz, aql-zakovatimiz, qat’iyat va irodamiz bilan dunyo ahli bizni tan olishi, e’tirof etishiga erishishimiz kerak. Yangi O‘zbekistonni yangi g‘alabalar bilan butun dunyoga tanitayotgan sportchilarimizning beqiyos yutuqlari mana shu yo‘lda yana bir muhim qadam bo‘lishi shubhasiz” degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng

jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan [1.]. Respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o‘quvchi va talabaiyoshlar o‘rtasida uch bosqichdan iborat “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport o‘yinlari ommalashib borayotgani, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi aholi sonining yildan yilga oshib borayotganligi, ayniqsa, e‘tiborlidir.

Ayni vazifalardan kelib chiqib, mamlakatda sport turlarini ommalashtirish, sportchlarning yuqori natijalari tarixi, buguni va ertasi masalalarini o‘rganish, e‘tibor qaratish zarurati vujudga keldi.

METODLAR VA O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritildi. Maqolada istiqlolning dastlabki yillarida O‘zbekistonda sportni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va ularning natijalari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy asoslari hamda uch bosqichli sport tizimi – “Universiada” (oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun), “Barkamol avlod” (o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari talabalari uchun) va “Umid nihollari” (o‘rta maktab o‘quvchilari uchun) musobaqalarining tashkil etilishi va an‘anaviy o‘tkazilishining yo‘lga qo‘yilishi davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma‘lumotlar asosida tahlil qilindi.

Ushbu davr o‘rganilganda bir necha tarixchi-olimlar tadqiqot ishlari ham ko‘rib chiqildi. Hususan, L.A.Djalilova [2.] hamda G.R.Asatovalar [3.] jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi, O‘zbekistonda olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik jarayonlari va paralimpiya sporti rivojlanishini tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganishga muvaffaq bo‘lganlar. Tadqiqotchilar mamlakatda istiqlol yillarida jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish markazlarining tashkil qilinishi, nogironlar sportini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan hukumat siyosatining mazmun-mohiyatini ochib berishga ham harakat qilishgan. Izlanuvchi G.Asatova ayniqsa milliy sport turlarining istiqlol yillarida rivojlanib borishi, mamlakatni uni taraqqiyoti sari yo‘naltirgan amaliyoti asoslari, bu g‘amxo‘rlik natijasi o‘laroq ommaviy sport turlari rivojlanishida yangi bosqich ko‘zga tashlanganligi, hukumatni mazkur siyosati zahirida fuqarolar jismoniy salomatligini muhofaza qilish yotganligi, umuman sport o‘yinlari va musobaqalarning aholini jismoniy barkamollik sari yetaklab borishi va dunyoda mavjud sport tadbirlarini yuksaltirishga xizmat qilib borganligiga e‘tibor qaratgan.

N.N.Djamilova, O.Ye.Terexova, I.N.Kimlarning tadqiqot ishida jismoniy tarbiyaning umumnazariy masalalari, mamlakatda istiqomat qilayotgan turli yoshga doir mavjud guruhlarda birinchi galda hozirda tobora ommalashib borayotgan harakatli va sport o‘yinlari ommalashuvi,

shu bilan bir qatorda maktabgacha bo'lgan yoshlarni jismoniy salomatligi yo'lida muhim qadamlar tashlanganligi, joylarda doimiy sport mashqlarining tashkil etilishi va o'tkazilishi sohada taraqqiyotiga erishishning muhim sharti ekanligi ta'kidlangan [2.292.].

Tadqiqotni amalga oshirishda ushbu manbalarni o'rganib, qiyosiy tahlil qilib, ilmiy xulosalarning olinishi tanlangan mavzuni tarixiy nuqtai nazardan kompleks o'rganish va ob'ektiv yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ushbu manbalarni o'rganib, qiyosiy tahlil qilib, ilmiy xulosalarning olinishi tanlangan mavzuni tarixiy nuqtai nazardan kompleks o'rganish va ob'ektiv yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab O'zbekiston hukumati jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishiga milliy taraqqiyotga ko'mak beruvchi omil sifatida katta e'tibor qaratdi. Shu boisdan mazkur soha faoliyatidagi amalga oshirilgan tub, davomli o'zgarishlar aynan jamiyatning yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy sharoitlariga to'la moslashtirildi. Bu sohani muntazam ravishda taraqqiy ettirish va uni muntazam qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan qator bosqichli islohotlar amalga oshirildi hamda bu jarayonlar ayni paytda ham izchillik bilan davom etib kelmoqda. Chunki jamiyat a'zolarini, xususan bo'lajak yosh avlodni sog'lom, ayniqsa komil inson qilib tarbiyalash bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Istiqloq yillarida jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, jahon andozalariga mos zamonaviy bilimlarga ega hamda o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, kelajak hayotga ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifaga aylandi.

Mustaqillik davrida O'zbekistonning sportini yanada takomillashtirishga, jadallashtirishga negiz hisoblangan eng muhim chora-tadbirlar ko'rildi. O'tgan qisqa fursat mobaynida respublikada milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sport sohasi modernizatsiyasiga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish hukumat siyosati yo'nalishiga kiritildi. Sohani ommalashtirish va aholi o'rtasida targ'ib qilish joylarda asta-sekin tobora kuchayib bordi. 1992-yilning 14-yanvarida bo'lib o'tgan Respublika Oliy Majlisining bo'lib o'tgan IX sessiyasida "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi huquqiy hujjat, ya'ni qonunning qabul qilinishi sohani ommaviy tarzda taraqqiy ettirishdagi dastlabki islohot debochasi bo'ldi [5.4.]. Ushbu amalga kiritilgan qonun 28 moddani o'z ichiga qamrab olib, uni to'la ravishda sohaga tatbiq etilishi qonun yo'li bilan mustahkamlandi. Mazkur qonunga muvofiq "maktabgacha bolalar tarbiya muassasalari va o'quv yurtlari har yili kamida bir marta maktabgacha yoshdagi bolalarning hamda o'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini ko'rikdan o'tkazish belgilab qo'yildi.

Yuqoridagi hujjatga ko'ra, barcha aholi qatlamlarining sog'ligini mustahkamlash, muhofaza qilish hamda ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga qulay shart-sharoitlarni yaratib berish asosiy maqsad qilib olingan. Qisqa davr o'tgach, ijtimoiy o'zgarishlarga hamohang tarzda bu qonun yanada to'ldirildi va unda mamlakat sportchilari oldiga qo'yilgan vazifalar qaytadan ishlab chiqildi hamda yanada takomillashtirildi. Shu boisdan oradan sakkiz-yil o'tgach, ya'ni 2000-yilning 26-mayida "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunning ikkinchi tahriri qabul qilindi [7.9.]. Qayta tahrirdagi qonun jami 27 moddadan iborat bo'lib, unda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hukumat amaliyotining asosiy tamoyillari sifatida eng birinchi navbatda insonparvarlik g'oyalari hamda ta'lim-tarbiyaning davomiyligi alohida uyg'unlashganligini ko'rish mumkin. Sport sohasida muhim tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyaga asoslangan islohotlarning olib borilishi hamda ayni paytda aholining barcha qatlamlari sog'ligini mustahkamlash hamda ularni doimiy muhofazasiga jiddiy e'tiborning kuchayib borishi natijasida 2015-yilning 4-sentyabridan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi qonunning yangi tahriri kuchga kirib, u 6 ta bob va 47 moddani o'zida jamladi [17.]. Uning asosiy va bosh maqsadi esa jismoniy tarbiya hamda sport sohasidagi munosabatlar tizimini muntazam tartibga solishdan iborat qilib belgilandi.

Qonunda xalqaro hujjatlarda aks etgan inson va fuqaro huquqlariga oid normalar ham o'z aksini topdi. Zero, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy manfaatlari to'la inobatga olingani holda milliy hamda xalqaro sport turlari bilan to'laqonli shug'ullanishlari uchun to'la imkoniyat yaratildi [15.39.]. Bundan tashqari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun jismoniy tarbiya, sport sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlilik tamoyillari ham qonun yo'li bilan to'la kafolatlab qo'yildi. Ko'rinib turibdiki, bu me'yoriy-huquqiy hujjatda mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari uchun huquqiy va tenglik tamoyillari kafolatlandi.

Alohida qayd qilish lozimki, O'zbekiston sporti tarixida 1992-yilning 21-yanvarida Milliy Olimpiya qo'mitasining tashkil etilishi chinakam tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. 1993-yilning 17-sentyabrida Xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi to'la ma'noda tan olindi. Milliy olimpiya qo'mitasining birinchi prezidenti lavozimiga O.Nazirov saylandi [8.171.]. Qo'mita xalqaro sport turlari va olimpiya harakatining rivojlanishiga yaqindan ko'mak berib kelmoqda. Shuningdek, uning vazifalari jumlasiga respublikada olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish, olimpiya o'yinlarida mamlakat vakillari ishtirokini ta'minlash, jahon sportchilari bilan do'stona aloqalar o'rnatish va rivojlantirish kiradi. Milliy olimpiya qo'mitasining 127 nafar a'zosi va 11 nafar faxriy a'zosi bo'lib, ular yuqorida keltirilgan masalalarni amalga oshirishga hissa qo'shadi [16.90.].

Respublika jismoniy tarbiya va sportining modernizatsiyasi sohasidagi dastlabki islohotlardan yana biri sifatida unda davlat mukofotlarining ta'sis etilishini keltirib o'tish aynan maqsadga muvofiqdir. Jumladan, 1993-yilning 4-martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etish to'g'risida"gi tegishli PF-575-son Farmonga muvofiq mamlakatda sog'lom muhitni shakllantirish, onalik va bolalikni muntazam ravishda muhofazaga olish, o'sib kelayotgan barkamol avlodning salomatligini tobora mustahkamlab borish, yoshlarni har tomonlama, jumladan, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va ulg'aytirish, ularni yashab turgan hududiga mehr-muhabbat tuyg'usini singdirish ishidagi alohida xizmatlarni rag'batlantirish maqsadida hamda bolalar manfaatlari yo'lida xayriya faoliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etganlik uchun davlat mukofoti – I va II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis qilindi. Uning nizomida ifodalanishicha, ta'lim-tarbiya hamda tibbiyot maskanlarida a'lo darajada xizmat qilgan xodimlar, rahbarlar va bu sohaga ulkan hissa qo'shgan shaxslarga I-II darajali ordenlar berilishi qat'iy ravishda belgilandi [15.47.]. Istiqlol yillari respublikaning deyarli barcha viloyatlaridagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari, BO'SMning qator murabbiy va rahbarlari, sport tashkilotlarining mas'ul xodimlari bu orden bilan mukofotlandi [2.127.]. Aynan shu davrda jismoniy tarbiya va sport ishlari asta-sekin jadallashib bordi. Xususan, sport turlaridan futbol, tennis, o'zbek kurashi, boks, sharqona yakka kurashlar (karate, dzyudo, taekvando, ushu, qo'l to'pi va boshq.) ayniqsa yoshlar orasida tobora ommalashib bordi.

Sohani taraqqiy ettirishda qator nodavlat takshilotlarining o'rni ham beqiyos bo'ldi. Masalan, 1993-yilning 23-aprelida mamlakatda "Sog'lom avlod uchun" nomli birinchi hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi tuzildi [14.16.]. Uning asosiy bosh maqsadi etib jismonan baquvvat, ma'nan yetuk, ruhan tetik farzandlar tarbiyalashni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qiluvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, oilalarda sog'lom avlodning dunyoga kelishi va tarbiyalanishi uchun yuksak mas'uliyat psixologiyasini shakllantirish belgilandi.

1999-yil 27-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sportning kelajakdagi taqdiri uchun muhim bo'lgan "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 271-son qarori qabul qilindi [18.]. Hujjatning eng e'tiborli ahamiyati shundan iborat bo'ldiki, unda sohaga taalluqli barcha sub'ektlarning o'zaro faoliyatini hukumat maqsadlari yo'liga to'la moslashtirildi. Shu asosda avvalgi mavjud bo'lgan sovet totalitar tuzumi nuqsonlaridan tamomila qutilish va xalos bo'lish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Unga asosan jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, turli kasalliklarning oldini olish, aholi keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va

sport bilan muntazam shug'ullanishiga ayrim-ayrim qaratildi [9.126.]. Shu bilan birga, qarorga ilova qilingan Davlat dasturida (konsepsiya) mamlakat aholisini ommaviy ravishda sportga jalb qilish, ularga zarur va maqbul shart-sharoitlar yaratib berish, ayniqsa, eng zamonaviy sport majmua (kompleks) larini yangidan qurish bosh vazifa qilib qo'yildi [12.2.]. Yuqoridagi qaror ijrosini bajarish maqsadida mavjud vazirliklar tasarrufidagi ta'lim muassasalarining o'quvchi-yoshlari o'rtasida 3-yilda bir marta "Barkamol avlod" sport musobaqalari tashkil etildi [13.32.]. Bu sport musobaqalari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil oluvchi talaba-yoshlarni jismoniy jihatdan barkamolligini ta'minlash, ular o'rtasida sog'lom muhitni yaratish, sport o'yinlarini rivojlantirish va ommalashtirish kabi muhim vazifalarni ado etishiga yaqindan yordam berishi, shubhasiz. Ana shu muhim topshiriq va vazifalardan kelib chiqqan holda, istiqbol yillarida mamlakatda yosh avlodni tarbiyalash hamda bolalar sportini yanada rivojlantirish ishiga ayrim ahamiyat berildi. 2001-yilda ta'lim muassasalarida o'rtasida o'tkazilgan "Barkamol avlod" birinchi bosqich sport musobaqalarida 400 mingga yaqin, bu musobaqalarning ikkinchi bosqichida esa 150 mingga yaqin o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. Zero, bolalar sportini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Ta'lim tizimining uzviy qismi bo'lgan uch bosqichli sport tizimi tarkibiga kirgan – "Universiada" (oliy ta'lim talabalari uchun) hamda "Umid nihollari" (o'rta maktab o'quvchilari uchun) musobaqalarni o'tkazish ham belgilandi [11.4.]. Bu musobaqalar xalqaro maydonlarda mamlakat sharafiga himoya qila oladigan yosh sportchilarni tarbiyalashda muhim maktab rolini o'tadi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Davlat dasturiga muvofiq o'quvchi-yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya hamda sportni yanada ommalashtirish maqsadida 1999-yilda maxsus test sinovlari ishlab chiqildi va tizimga tatbiq etildi. 2000-yilning 1-martidan boshlab uni amalga oshirish uchun mutasaddi davlat va jamoat idoralari tegishli qaror qabul qildi. Maxsus testlar asosan uch bosqichga, ya'ni birinchi bosqich – 6-17 yosh, ikkinchi bosqich – 18-34 yosh va uchinchi bosqich – 35-60 yoshga mo'ljallandi [12.3.]. O'quvchilar va talabalarning umumjismoniy tayyorgarligini maxsus testlar orqali tekshirishning umummilliy haftasini joriy etish, mazkur test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirganlar uchun xalq dostoni qahramonlari sharafiga "Alpomish" va "Barchinoy" deb nomlangan uch darajali ko'krak nishonlari ta'sis qilindi. Buning natijasi va samarasi o'laroq 2002-yili respublikada 1 588 298 nafar o'quvchilar mazkur maxsus testlarni muvaffaqiyatli tarzda topshirdilar.

Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yilning 3-iyunida "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" qabul qilingan 244-son qarorda mamlakat o'quvchi va talabalari o'rtasida sog'lom

muhitni yaratish maqsadida sport turlari rivojlanishiga va ommalashishiga keng imkon yaratib berish, qator sport turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan musobaqalar tashkil qilish va ularni muntazam ravishda o'tkazish vazifalari alohida qayd qilindi. Eng muhim ishlardan biri sifatida sport musobaqalarining Respublika final bosqichlarini uch yilda bir marotaba o'tkazilishini qayd etish maqsadga muvofiq. Hujjatga binoan o'quv muassasalari talaba-yoshlarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" sport musobaqalari an'anaviy tarzda o'tkazish belgilandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi zimmasiga sport musobaqalari ishtirokchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishni amalga oshirish, sport musobaqalari ("Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada") davrida tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish, sportchilarning dam olish, ovqatlanish joylarida sanitariya va gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilishini ta'minlashi yuklatildi.

XULOSA

Istiqlolning dastlabki yillaridan to 2003-yilgacha bo'lgan davri davomida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hukumat siyosati darajasiga ko'tarildi. Dastlab 1992-yili "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, uning 2000-yilda ikkinchi tahrirda hamda 2015-yilda uchinchi yangi tahrirda qabul qilinishi tarixiy ahamiyatga molik bo'ldi va mazkur huquqiy hujjat mamlakatda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga ko'mak berdi. Qator huquqiy hujjatlarda sport sohasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda aholi o'rtasida, ayniqsa yoshlar sog'ligini muhofaza qilish va sport turlarini ommalashtirishga muhim darajada e'tibor qaratildi. Bu borada ayniqsa uch bosqichli sport tizimi – "Universiada" (oliy o'quv yurtlari talabalari uchun), "Barkamol avlod" (o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari uchun) va "Umid nihollari" (o'rta maktab o'quvchilari uchun) musobaqalarining tashkil etilishi va an'anaviy o'tkazilishining yo'lga qo'yilishi aholi ijtimoiy va madaniy hayotida muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu sa'y-harakatlar sport musobaqalaridan, asosan, badiiy gimnastika, basketbol, voleybol, gandbol, yengil atletika, sport gimnastikasi, stol tennisi, suzish, tennis, futbol kabi olimpiada o'yinlari dasturiga kirgan va shaxmat, belbog'li kurash, kurash singari sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarni ommalashtirishga qaratildi.

Shu bilan birga, mamlakatda sohaga doir muhim islohotlardan biri "Sog'lom avlod" Davlat dasturi qabul qilinishi hamda "Sog'lom ona va sog'lom bola" shiorining ustuvorligi to'la ta'minlanishi bo'ldi. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya va sport sohasi vakillarining xizmatlarini alohida e'tiborga olgan holda "Sog'lom avlod uchun" ordeni, "Alpomish" va "Barchinoy" ko'krak nishonlari ta'sis etildi va ularning qator-yillarida mobaynida an'anaviy taqdirlanishi yo'lga qo'yildi. O'z navbatida, bu sa'y-harakatlarning muntazam tarzda aholi qatlamlari

o'rtasida amalga oshirilishi respublikada sog'lom muhitni yaratish, taraqqiy ettirish, sport turlarini ommalashtirib borish va mazkur sohadagi islohotlarning tizimli hamda davomli kechayotganligidan yaqqol darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://xabar.uz/uz/sport/shavkat-mirziyoyev-sherga-qarshi-sherdek-kurashish-jang-qilish>
2. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. –Toshkent: Voris nashriyoti, 2017. – 127- bet.;
3. Асатова Г.Р. Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спорт тарихи: миллий спорт турлари мозаикаси // Жамият ва инновациялар. –Тошкент, 2022. Махсус сон – 04 (2022). – Б.263-273.
4. Джамилова Н.Н., Терехова О.Е., Ким И.Н. Теория и методика физического воспитания. –Ташкент: NIF MSH, 2021. –С.23.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий кенгашининг Ахборотномаси. –Тошкент, 1992.- №3, 160-модда.–Б.4.
6. Собиров Р. Қонун ижросини амалга ошириш - долзарб вазифа / Халқ сўзи, 1992 йил 19 февраль.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – Тошкент, 2000. -№5-6, 147-модда.–Б.9.
8. Асатова Г.Р. История физической культуры и олимпийского движения (олимпийская энциклопедия). -Ташкент: ИПТД имени Чулпана, 2019. –С.171.
9. Normurodov A.N.Jismoniy tarbiya.–Toshkent: Tafakkur-bo‘stoni, 2011.-B.126.
10. Джамилова Н.Н., Терехова О.Е., Ким И.Н. Теория и методика физического воспитания.-Ташкент: NIF MSH, 2021. -С.23.
11. Usmonxo‘jayev T., Tursunov O‘. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti.-Toshkent: O‘qituvchi, 2004.-B.4.
12. O‘zMA, M.38-fond, 1-ro‘yxat, 108-yig‘majild, 2,3-varaq.
13. O‘zMA, M.1-fond, 1-ro‘yxat, 17-yig‘majild, 32-varaq
14. O‘zMA, M.1-fond, 2-ro‘yxat, 38-yig‘majild, 16-varaq.
15. O‘zMA, M.1-fond, 1-ro‘yxat, 14-yig‘majild, 39,47-varaq.
16. O‘zMA, M.38-fond, 3-ro‘yxat, 112-yig‘majild, 90-varaq.
17. <https://lex.uz/docs/-2742233/O‘RQ-394-son> 04.09.2015 “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni.
18. <https://lex.uz/docs/-300744.271-son> 27.05.1999. O‘zR VM qarori